

## ONA TILIDAN NAZORAT SHAKLLARINI TASHKIL QILISH YO‘LLARI

**Kazakova Gulxayo Xamidjanovna**

*Qoraqalpoq davlat universiteti*

*4-kurs talaba*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada ona tili fanidan nazorat shakllarini samarali tashkil etish yo‘llari yoritiladi. Unda o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini aniqlashda qo‘llaniladigan an‘anaviy va zamonaviy nazorat usullari, ularning afzalliklari hamda amaliy qo‘llash mexanizmlari tahlil qilinadi. Shuningdek, nazorat jarayonini to‘g‘ri rejalashtirish orqali ta‘lim sifatini oshirish masalalariga alohida e‘tibor qaratiladi.

**Tayanch so‘zlar:** nazorat, baholash, hisobga olish, test, yozma ish, og‘zaki so‘rov, monitoring, diagnostika, ta‘lim samaradorligi, metodika, kompetensiya, tahlil.

**Abstract.** This article illuminates effective ways of organizing assessment forms for the native language subject. It analyzes traditional and modern assessment methods used to determine students' knowledge, skills, and competencies, along with their advantages and mechanisms for practical application. Furthermore, special attention is given to the issue of improving educational quality through the proper planning of the assessment process.

**Keywords:** supervision, assessment, evaluation, testing, written work, oral questioning, monitoring, diagnostics, educational effectiveness, methodology, competency, analysis.


Ta‘lim jarayonining muhim tarkibiy qismlaridan biri nazorat va hisobga olish hisoblanadi. Bu tushunchalar o‘ziga xos mazmun va xususiyatlarga ega bo‘lib, ularni to‘g‘ri tashkil etish ta‘lim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Shu sababli o‘qituvchi o‘quvchilarning o‘quv materialini qay darajada o‘zlashtirganini aniq belgilab olishi lozim.

Nazorat – bu ta‘lim oluvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini aniqlash, o‘lchash va baholash jarayoni. Bilimlarni aniqlash va o‘lchash esa tekshirish tushunchasi bilan ifodalanadi. Tekshirish nazoratning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, uning asosiy didaktik vazifasi o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida teskari aloqani ta‘minlashdan iboratdir. Ushbu jarayon orqali pedagog o‘quv materialining o‘zlashtirilishi haqida obyektiv axborot oladi hamda bilimlardagi kamchilik va nuqsonlarni o‘z vaqtida aniqlash imkoniga ega bo‘ladi. Tekshirishning maqsadi faqat o‘quvchining bilim darajasi va sifatini aniqlash bilan cheklanmay, balki uning o‘quv mehnati hajmini ham belgilashni nazarda tutadi. Tekshirish tizimining birinchi bosqichi ta‘lim oluvchilarning bilim darajasini oldindan aniqlash hisoblanadi. Odatda, bu tekshirish o‘quv yili boshida o‘tkazilib, o‘quvchilarning avvalgi o‘quv yilida egallagan bilimlari darajasini aniqlashga xizmat qiladi. Shuningdek, bunday tekshirish o‘quv yilining o‘rtasida yangi bo‘lim yoki kursni o‘rganishga kirishishdan oldin ham amalga oshirilishi mumkin va bu holat maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bilimlarni tekshirishning ikkinchi bosqichi har bir mavzuni o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan joriy tekshirish hisoblanadi. Joriy tekshirish ta‘lim oluvchilarning o‘quv

dasturida belgilangan ayrim elementlarni qay darajada o'zlashtirganini tashhislash imkonini beradi. Ushbu tekshirishning asosiy vazifasi muayyan vaziyatni alohida o'rganishdan iboratdir. Joriy tekshirishning shakl va metodlari xilma-xil bo'lib, ular o'quv materiali mazmuni va murakkabligi, o'quvchilarning yoshi va tayyorgarlik darajasi, ta'lim bosqichi va maqsadlari hamda mavjud pedagogik sharoitlarga muvofiq tanlanadi.

Bilim, ko'nikma va malakalarni tekshirishning uchinchi bosqichi - takroriy tekshirishdir. U joriy tekshirish kabi mavzuli bo'lishi mumkin. Yangi mavzularni o'rganish jarayonida o'quvchilar ilgari egallangan bilimlarni takrorlaydilar. Takroriy tekshirish bilimlarni mustahkamlashga xizmat qiladi, biroq o'quv faoliyati bosqichlarini to'liq tavsiflash va bilimlarning mustahkamlik darajasini aniq tashhislash imkonini bermaydi. Shu bois u tashhisning boshqa shakl va metodlari bilan birgalikda qo'llangandagina kutilgan samarani beradi. Tekshirish tizimining to'rtinchi bosqichi - o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini yaxlit bo'lim yoki kursning alohida mavzulari bo'yicha davriy tekshirishdan iborat. Ushbu tekshirishning asosiy maqsadi kursning turli qismlarida o'rganilgan o'quv materiallari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni o'zlashtirish sifatini aniqlashdir. Davriy tekshirishning yetakchi vazifasi bilimlarni tizimlashtirish va umumlashtirish hisoblanadi. Tekshirishni tashkil etishdagi beshinchi bosqich esa bilim oluvchilarning ta'lim jarayoni barcha bosqichlarida egallagan bilim, ko'nikma va malakalarini yakuniy tekshirish va hisobga olishdan iboratdir. O'zlashtirishning yakuniy hisobi har bir chorak hamda o'quv yili oxirida amalga oshiriladi. Bu jarayon faqat olingan baholarni qo'shib, o'rtacha arifmetik ballni mexanik tarzda aniqlash bilangina cheklanmasligi lozim. Asosiy maqsad – mazkur bosqich uchun belgilangan vazifalarga muvofiq holda o'quvchilarning mavjud bilim darajasi va sifatini tashhislashdan iborat.

Nazorat jarayoni faqat tekshirishni emas, balki baholash (jarayon sifatida) va baho (natija sifatida)ni ham o'z ichiga oladi. O'zlashtirish natijalari sinf jurnallari, guruh jurnallari, reyting daftarchalari va boshqa hujjatlarda shartli belgilar, kodlar yoki baholar ko'rinishida qayd etiladi. O'quvchining o'zlashtirish darajasini baholashda nazorat natijalari asos bo'lib xizmat qiladi va bunda ishning ham sifat, ham miqdor ko'rsatkichlari hisobga olinadi. Miqdor ko'rsatkichlari, odatda, ballar yoki foizlarda ifodalanadi. Sifat ko'rsatkichlari esa "a'lo", "yaxshi", "qoniqarli" kabi baholovchi fikrlar orqali aniqlanadi. Har bir baholovchi fikrga oldindan belgilangan muayyan ball yoki ko'rsatkich biriktiriladi. Shu bilan birga, baho faqat hisob-kitob natijasida olingan son emas, balki baholovchi fikrga yuklangan mazmun ekanini unutmaslik muhimdir. Baho pedagog ixtiyoridagi o'qishga qiziqish uyg'otish, ijodiy faollikni rag'batlantirish va shaxsga ta'sir ko'rsatish vositasi hisoblanadi. Aynan obyektiv baholash ta'sirida o'quvchilarda o'z-o'zini to'g'ri baholash va shaxsiy muvaffaqiyatlarga tanqidiy yondashuv shakllanadi. Shu bois bahoning ahamiyati va vazifalarining xilma-xilligi o'quvchilarning o'quv faoliyatining barcha jihatlarini qamrab oladigan hamda ularni aniq aks ettiradigan ko'rsatkichlarni izlab topishni taqozo etadi.



Hisobga olish - bu ma'lum bir davrda o'quvchilar va o'qituvchi faoliyatini umumlashtirish va xulosalash jarayonidir. O'quvchilarning o'zlashtirish natijalarini hisobga olishda quyidagi jihatlar alohida e'tibor qaratish zarur:

a) o'quv dasturi asosida mavzu va bo'limlarni o'rganishda bilim, ko'nikma va malakalarni har tomonlama nazorat qilish;

v) har bir yakunlangan mavzu bo'yicha o'quvchilar faoliyatiga xulosa berish;

s) faqat o'rtacha arifmetik ko'rsatkichlarga tayangan holda o'zlashtirish darajasini baholamaslik;

d) o'quvchilarning bilim darajasi haqida aniq va batafsil tavsif berish uchun bir necha o'quv yiliga oid statistik ma'lumotlar asosida tahlil o'tkazish.

Demak, o'zlashtirishni nazorat qilish va hisobga olish ishlari nazorat qilish, o'qitish, tarbiyalash hamda rivojlantirish vazifalarini birgalikda amalga oshiradi. Nazorat qilish vazifasi o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalari qaysi darajada ekanini aniqlashga qaratilgan. Bu esa o'quv materialini o'rganishning keyingi bosqichiga o'tish imkoniyatlarini belgilash hamda o'qituvchining tanlagan metod va usullarining to'g'riligini tekshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, nazorat qilish vazifasi o'quv materialini o'zlashtirishning eng maqbul yo'llarini aniqlash bilan ham bog'liqdir. Nazoratning tarbiyalash vazifasi ham katta, ya'ni o'quvchilarning doimo tekshirishga tayyor bo'lishi, darslarni o'z vaqtida tayyorlashi, vaqtni to'g'ri taqsimlashi va intizomli bo'lishiga xizmat qiladi. Bundan tashqari, tekshirish va baholash o'quvchilarning o'z bilim va imkoniyatlarini mustaqil baholashiga, mavjud kamchiliklarini anglab, ularni bartaraf etish yo'llarini izlashiga yordam beradi. Pedagogika fanida bilimlarni o'z vaqtida nazorat qilish va baholash uch asosiy vazifani bajarishi alohida ta'kidlanadi:

1. O'zlashtirishni nazorat qilish va baholash natijalari asosida Davlat ta'lim standartlarining bajarilishi aniqlanadi hamda kelgusi vazifalar belgilanadi.

2. Bilimlarni nazorat qilish va baholash orqali o'quvchilarning bilimlari kengayadi va mustahkamlanadi, bu esa ta'lim muassasalari oldiga qo'yilgan ta'limiy maqsadlarning amalga oshishiga xizmat qiladi.

3. Ta'limdagi ijobiy natijalar o'quvchilarning tarbiyasiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatib, ularda ko'tarinki ruh, o'z kuchiga ishonch va o'qishga qiziqishni kuchaytiradi.

Shu sababli ta'lim natijalarini tekshirish va baholash ta'lim tizimining ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Aynan mana shu vazifalardan kelib chiqib, o'quvchilarning o'quv faoliyatini hisobga olishning turli shakl va metodlari ishlab chiqilgan va amaliyotda qo'llanilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, ona tili fanidan nazorat shakllarini to'g'ri va maqsadga muvofiq tashkil etish ta'lim jarayonining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Turli nazorat usullaridan o'rinli foydalanish o'quvchilarning bilim darajasini aniq baholash, ularning individual xususiyatlarini hisobga olish hamda o'zlashtirishdagi bo'shliqlarni o'z vaqtida aniqlash imkonini beradi. Shuningdek, zamonaviy pedagogik yondashuvlarga asoslangan nazorat shakllari o'quvchilarda mustaqil fikrlash, tahlil qilish va nutqiy faoliyatni rivojlantirishga

xizmat qiladi. Natijada, ta'lim sifati oshib, o'quvchilarning ona tiliga bo'lgan qiziqishi kuchayadi. Shu sababli, nazorat jarayonini ilmiy asosda tashkil etish va uni doimiy takomillashtirib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Маҳмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. – Т.: “Ўқитувчи”, 1995.
2. Mavlonova K. va boshqalar. Ona tili. Umumta'lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik. – Т.: Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022.–224 b. 3.
3. Mavlonova K. va boshqalar. Ona tili. Umumta'lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik. – Т.: Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022.–224 b.
4. Мирзакулов Т. Грамматика ўқитишнинг лингвистик асослари. –Т.: Ўқитувчи, 1994. –56 б.
5. Назаров С. Ўзбек тили ўқитиш методикаси. Т.: Ўқитувчи, 1992.
6. Назаров К. Ўзбек тили ва адабиётидан баҳо меъёри. Тошкент.: 1990
7. Неъматова Г. Ижодий тафаккурни ривожлантириш технологияси ва ўқитувчининг мустақил фаолияти. Она тили ўқитувчилари учун методик тавсиялар. – Тошкент, 2001.